

TIQXMMI buxoro filial direktori Shavkat Imomovning QXM fakulteti birinchi bosqich talabalari bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi

Mamlakatimizda yoshlarga bo'lgan e'tibor, o'sib kelayotgan barkamol avlodga bo'lgan g'amxo'rlik davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani bilan ham juda ahamiyatlidir. Yoshlar uchun qaratilgan e'tibor, ularni qo'llab - quvvatlash darajasi kun sayin ortib borayotgani o'g'il-qizlar uchun ko'plab imkoniyatlar eshigini oshib bermoqda. Zero yoshlar vatan kelajagi, ertangi kunning bunyodkorlaridirlar.

19-yanvar kuni TIQXMMI Buxoro filialning "Madaniyat saroyida" filial direktori va birinchi bosqich Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyaalash fakultetining yoshlari bilan "Rahbar va yoshlar" uchrashuvi bo'lib o'tdi. Tadbirni filialimiz direktori professor Imomov Shavkat Jaxonovich 2020 yilning 25-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar bilan uchrashuvda "Yoshlar forumi"dagi yoshlarga aytgan fikrlari bilan oshib berdi.



Filial direktori nutqlari davomida Prezidentimizning yoshlarga bildirgan fikrlari, endilikda yaratilayotgan imkoniyatlar, oliy ta'lif muassasalaridagi o'zgarishlar, aynan 2021 yilning Respublikamizda "Yoshlarni qo'llab quvvaatlash va aholi salomatligini mustahkamlash" yili deya nomlanishi haqida ham alohida to'xtalib o'tdilar.

Do'stona o'tgan uchrashuvga yig'ilgan talabalar o'zlarining fikr-mulohazalari, yutuqlari va kelajakdag'i rejali haqida gapirdilar. O'z navbatida uchrashuvga taklif qilingan professor-o'qituvchilar va bo'lif boshliqlari ham o'zining talabalalik yillarini xotirladi, o'tmisht va bugunni solishtirib, yoshlik yillaridagi voqealardan so'zlab berdi.



Ayniqssa filial direktorining filial yoshlariga qarab "sizlar mening bolalarimsiz", qanday sharoit kerak bo'lsa hammasini yaratib berishga kuchim yetadi deya aytgan so'zlari yoshlarning yanada oldinga intilib harakat qilishlariga alohida turtki bo'ldi.

Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash ta'lif yo'naliishi 1/1 guruh talabasi No'monov Jalol o'z so'zida - men hozir birinchi bosqich talabasiman. Xudo xoxlasa o'z oldimga katta niyat qo'ydim. Bizdan oldindi filialimiz talabalari erishgan yutuqlarini davom ettirgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendianti bo'laman deya faxr ila aytdi. Shu bilan birgalikda filialimiz yoshlari uchun "Filial direktori" stipendiyasini joriy qilish degan taklifni ilgari surdi. Filial direktori esa bu taklifni qo'llab quvvatladi va mas'ullarga topshiriq berildi.

Shundan keyin Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash ta'lif yo'naliishi 1/2 guruh talabasi Hamroyev Og'abek esa - eng avvalo manashunday uchrashuvni tashkil qilganingiz uchun sizga barcha talabalari nomidan tashakkur bildiramiz, filialda onlayn o'qish davrida ham darslarni o'z vaqtida tashkil qilib, bizga kerakli bilimlarni bergen ustozlarimizga, qolaversa bugungi kunda an'anaviy ta'lif shakliga o'tib filialning sehrli partalarida ta'lif olayotganimiz uchun, shu bilan birga bizga o'qib ta'lif olishimiz uchun barcha sharoitlarni yaratib berayotganingiz uchun filialimiz rahbaryatiga o'z minnatdorchiligidimiz bildiramiz deya o'z fikrini bildirdi hamda filialda harbiy kafedra tashkil qilish taklifini ilgari surdi.



Bugungi tadbirni noodatiy tashkil etilganidan maqsad ham yoshlar bilan yanada yaqin bo'lism, ular ichiga kirib borish, kerak bo'lsa ular bilan birga orzu qilishdir. Jamiyatimizga o'zgacha yondashuvga ega, salohiyati baland va yangicha fikrlaydigan yoshlar kerak. Biz bu davradan ana shunday yoshlarimizni

topamiz.

Ochiq-oshkora, muloqot tarzida o'tgan uchrashuvda yoshlari erishayotgan yutuqlari, o'zlarini qiyayotgan turli muammo va masalalar yuzasidan erkin fikr bildirdi.

TIQXMMI Buxoro filiali matbuot xizmati